MAHALLANING JAMIYAT BARQARORLIGINI TAMINLASHDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY ROLI

Norbayev Asadbek Ilxom o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
‘’Turizm’’ fakulteti Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi talabasi
E-mail: asadbeknorbayev2007@gmail.com

Ukibayeva Gulumay Toymaganbet qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
‘’Turizm’’ fakulteti Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi talabasi
E-mail: ukibayevagulimay@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalla institutining jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ijtimoiy va siyosiy ahamiyati ilmiy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Unda mahallaning fuqarolik jamiyatidagi o‘rni, ijtimoiy muammolarni hal etishdagi funksiyalari, davlat boshqaruvidagi roli hamda O‘zbekistondagi olib borilayotgan islohatlar asosida rivojlanish keng yoritilgan. Tadqiqot davomida rasmiy hujjatlar, amaliy natijalar va davlat siyosatiga asoslangan xulosalar chiqarilgan. Umumiy qilib aytganda mahalla fuqarolar bilan qanday ishlashi, davlat esa mahalladagi fuqarolarni o‘rganib chiqgan holda ularga qanday qilib yordam berish va muammolarini hal qilish choralarini ko‘radi hamda ular bilan yaqindan ish olib boradi.

Kalit so‘zlar: Mahalla, jamiyat barqarorligi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy institut, siyosiy ishtirok, ijtimoiy nazorat, davlat boshqaruvi, ijtimoiy himoya, islohotlar.

Kirish

Hozirgi kunda jamiyat barqarorligi har qanday davlat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Barqaror jamiyat esa fuqarolar o‘rtasida o‘zaro bir-biriga ishonch, qonun ustuvorligi,hamjihatlik hamda ijtimoiy adolatni ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasida ushbu barqarorlikni ta’minlashda mahalla institutlari muhim o‘rin egallaydi. Mahalla qadimdan xalqimiz hayotining ajralmas bir qismi hisoblangan, hozirgi kunda esa u fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida davlat boshqaruv tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Rasmiy manbalarda qayd

etilishicha mahalla fuqarolarni ya’ni aholini muammaolarini joyida hal etish, ijtimoiy yordam berish, ular bilan doimiy muloqotda bo‘lish hamda fuqarolarni davlat boshqaruvida ishtirokini ta’minlashda muhum institute hisoblanadi.

Mahalla fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri sifatida aholining kundalik hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy tuzilma hisoblanadi. Shuning uchun u ijtimoiy boshqaruvning quyi bo‘g‘ini sifatida faoliyat yuritib keladi hamda aholining muammolarini joyida aniqlash va ularni tezkor hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Mahalla orqali kam ta’minlangan oilalarni aniqlash, ularga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish, yoshlar tarbiyasini yo‘lga qo‘yish hamda jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Shu jihatdan u nafaqat ijtimoiy yordam mexanizmi, balki milliy qadriyatlarni saqlovchi va rivojlantiruvchi tizim sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, mahalla davlat va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik desak ham bo‘ladi. Mahalla orqali davlat siyosati aholiga yetqaziladi, fuqarolarning taklif, ehtiyoj va muammolari esa davlat boshqaruv o‘rganlariga uzatiladi. Ayniqsa saylov jarayoni vaqtida mahallaning ishtiroki muhim va katta o‘rin egallaydi. So‘gi yillarda dunyo miqqiyosida ko‘plab o‘zgarishlar bo‘ldi va bu voqealar bizning davlatni ham chetlab o‘tmadi.

O‘zbekistonda ham anchagina o‘zgarishlar bo‘ldi va amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida mahallalarga keng vakolatlar berilib, ular orqali aholiga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari hajmi anchagina kengayib bormoqda. Bunday o‘zgarish va yangiliklar nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Mahalla ijtimoiy nazoratga ham katta e’tibor qaratadi va hozirgi kunda muammolarni erta hal etish va ularning oldini olishga xizmat qilmoqda. Xususan, yoshlarimiz o‘rtasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish, oilaviy nizolardan qo‘ldan kelgancha bartaraf etish va ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishda mahalla faollarining o‘rni katta. Bundan tashqari mahalla yettiligi joriy etilgandan so‘ng ishlar yanada osonlashdi hamda ko‘plab sud ishlari mahalla faollari bilan birgalikda sudga yetib bormasdan tinch yo‘llar bilan hal etildi. So‘ngi yillarda “ayollar daftari” , “temir daftar” va “yoshlar daftari” kabi tizimlar joriy etilib bu orqali aholining

muammolari aniq ro‘yxatga olinib, ularga individual yondashuvlar asosida yechimlar topilmoqda.[1]

Bu esa ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy islohatlar natijasida mahalla raislari va xodimlarining vakolatlari kengaytirilmoqda va aholi turmush tarzini yaxshilash uchun ko‘plab mexanizmlar takomillashtirilib aholining iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Tahlil natijalari

Olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida mahalla institutining jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Kuchli tomonlari sifatida uning aholiga yaqinligi, muammolarni tezkor hal etish imkoniyati va ijtimoiy nazorat mexanizmining samaradorligi qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda tashkilotchilik darajasining yetarli emasligi va kadrlar malakasi bilan bog‘liq muammolar mavjudligi aniqlandi.

Mahalla tizimining SWOT tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
• Aholiga yaqin tizim • Ijtimoiy yordam samaradorligi • An’anaviy birlik va ishonch	• Moliyaviy resurslar cheklangan • Ba’zi hududlarda passivlik • Kadrlar malakasi yetarli emas
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
• Raqamlashtirish orqali rivojlanish • Yoshlar bilan ishlashni kuchaytirish • Davlat qo‘llab-quvvatlashi	• Urbanizatsiya ta’siri • Global madaniy o‘zgarishlar • Ijtimoiy tengsizlik xavfi

1-rasm. Mahallaning jamiyat barqarorligini taminlashdagi ijtimoiy-siyosiy roli bo‘yicha SWOT tahili.[2]

Imkoniyatlar sifatida mahalla tizimini raqamlashtirish, yoshlar bilan ishlashni kuchaytirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish zarurligi ta’kidlandi. Tahdidlar sifatida esa urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya va ijtimoiy muammolarning murakkablashuvi ko‘rsatib o‘tildi.

[1] Kun.uz yangiliklar portali materiallari. https://www.kun.uz
[2] Muallif ishlanmasi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mahalla O‘zbekistonda jamiyat va davlat ishlarini olib boruvchi va ularga tez hamda oson yechim topuvchi yo‘l hisoblanadi. U orqali davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligi ushlab turiladi. Mahalla va uning faollari orqali ijtimoiy adolat ta’minlanadi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki kuchayadi va jamiyatda tinchlik hamda barqarorlik mustahkamlanadi. Hozirgi kunda zamonaviy islohatlar ham mahallaga katta ta’sir ko‘rsatmoqda, uning natijasida mahalla tizimi yanada rivojlanayabdi va samaradorligi ortib bormoqda. Kelgusi yillarda sekin asta bundan ham takomillashib aholi bilan yanada yaqinroq va hamjihatlikda ish olib boriladigan bo‘ladi. Mahallaning o‘zidan va fuqarolardan yangi g‘oyalar va start up lar chiqa boshlaydi hamda buning hammasi davlat va jamiyat uchun katta foyda va yutiuqlar olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti – https://www.prezident.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari – https://www.lex.uz
3. Kun.uz yangiliklar portali materiallari. https://www.kun.uz
4. Sotsiologiya va siyosatshunoslik bo‘yicha ilmiy adabiyotlar
5. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosatga oid ilmiy tadqiqotlar